

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI, CHORVACHILIK
VA BIOTEKNOLOGIYALAR UNIVERSITETI**

IQTISODIYOT FAKULTETI

BUXGALTERIYA HISOBI VA AUDIT KAFEDRASI

60410100-“Buxgalteriya hisobi va audit”(qishloq xo‘jaligida) ta‘lim yo‘nalishi

306-guruh talabalari uchun

RUZIYEVA DILAFRUZ FAXRIDINOVNAning

“Qishloq xo‘jaligida moliyaviy tahlil” fanidan

“Qiyosiy tahlil” mavzusida ochiq amaliy darsining ishlanmasi

Samarqand – 2026

Tuzuvchi:

D.F.Ruziyeva – “Buxgalteriya hisobi va audit” kafedrası assistenti.

Taqrizchilar:

R.N.Jiyamuratov – SamISI “Marketing” kafedrası katta o’qituvchisi, i.f.f.d

A.Aliqulov – “Buxgalteriya hisobi va audit” kafedrası mudiri, I.f.d.professor

Kelishildi: O’quv-uslubiy boshqarma

boshlig’i, professor v.v.b.

Sh.Qurbanov

“Qiyosiy tahlil” mavzusidagi amaliy mashgʻulot oʻqitish texnologiyasi

Vaqt-2 soat.	Talabalar soni: 18-nafar.
Oʻquv mashgʻulotining shakli	Binar amaliy munozara.
Amaliy mashgʻuloti rejasi	<ol style="list-style-type: none"> 1. Qiyosiy tahlilning mohiyati va asosiy maqsadi 2. Qiyosiy tahlil turlari
<p>Oʻquv mashgʻulotining maqsadi: Hozirgi zamon bozor iqtisodiyotida qiyosiy tahlilning mohiyati va asosiy maqsadi, qiyosiy tahlil turlari boʻyicha koʻnikmlarni shakllantirish.</p>	
<p>Pedagogik vazifalar: mavzu boʻyicha bilimlarni kengaytirish va chuqurlashtirish; oʻz fikrini ilgari surish asoslash, muzokara qilish koʻnikmalarini rivojlantirish; muammoli vazifalarni yechishni faollashtirishni ragʻbatlantirish; muammoli vazifalarni yechishda eng yaxshi yechimlarni tanlash va baholash koʻnikmalarini hosil qilish; kommuniktsiya, guruhda ishlash koʻnikmalarini rivojlantirish.</p>	<p>Oʻquv faoliyatining natijalari: Talaba: Qiyosiy tahlilning mohiyati va asosiy maqsadi haqida maʼlumotga ega boʻladi; Qiyosiy tahlil turlar haqida tushunchani shakllantiradi; Qiyoslanuvchi obyektlarning oʻxshash va farqli jihatlarini aniqlash oʻrganadi;</p>
Oʻqitish usullari va texnikasi	Munozara, muammoli, “case-study”, klaster usul. Toʻgʻridan-toʻgʻri jamoaviy aqliy hujum, BBB jadvali
Oʻqitish vositalari	Oʻquv qoʻllanmalar, oʻquv daftarlari, A4 kattaligidagi qogʻoz, marker, skotch.
Oʻqitish shakllari	Frontal, guruh va jamoada ishlash.
Oʻqitish sharoitlari	Texnik taʼminlangan, guruhlarda ishlashga moslashtirilgan auditoriya.

“Qiyosiy tahlil” mavzusidagi amaliy mashg`ulotining texnologik kartasi

Bosqichlar, vaqti	Faoliyat mazmuni	
	o`qituvchi	talaba
1-bosqich. Kirish (10 min.)	<p>O`quv mashg`ulotining mavzusi maqsadi, rejalashtirilgan natijasi va uni o`tkazish rejasini aytadi. O`qitish guruhlarda ishlash texnologiyasi asosida oshib borilishini e`lon qiladi.</p> <p>Mavzuning tayanch iboralari asosida blits-so`rov o`tkazadi.</p> <p>Talabadan javobni eshitadi va mavzu muhokamasi guruhlarga ishlar taqdimotidan so`ng davom etishini e`lon qiladi.</p> <p>Har bir talaba guruh bahosiga mos ravishda baho olishini tushuntiradi, guruhlarda ishlash qoidalari bilan tanishtiradi (2-ilova). Guruhlarda ishlash natijasi plakat qog`ozlarda ko`rsatilishi kerakligini ma`lum qiladi.</p>	<p>1.1. Tinglaydilar, yozib oladilar.</p> <p>1.2. Savollarga javob beradilar</p>
2-bosqich. Asosiy (20 min.)	<p>2.1. Talabalarni 2 guruhga ajratadi. O`quv topshiriqlarini tarqatadi (4-ilova).</p> <p>Vazifa butun guruh tomonidan bajarilishini e`lon qiladi. Vazifani bajarishda darslik, ma`ruza matnlari va boshqa qo`llanmalardan foydalanish mumkinligini tushuntiradi. O`quv natijalarini eslatadi.</p> <p>Guruhlarda ishlarni boshlashni e`lon qiladi.</p>	<p>2.1. O`quv topshiriqlarini baholash ko`rsatkichlari va mezonlari bilan tanishadilar.</p> <p>Vazifani bajaradilar</p>
3-bosqich. Taqdimot (45 min.)	<p>Taqdimot va guruhlarda ishlash natijalarini o`zaro baholashni tashkil etadi. Javoblarni sharhlaydi, bilimlarni umumlashtiradi, vazifani bajarish jarayonidagi asosiy xulosalarga e`tiborni qaratadi.</p> <p>Munozara uchun savollar beradi (5-ilova).</p>	<p>3.1. Taqdimot qilishadi, qo`shimchalar qilishadi, baholashadi.</p>
4-bosqich. Yakuniy (5 min.)	<p>Mashg`ulotga yakun yasaydi, faol ishtirokchilarni rag`batlantiradi. Kelajakda amaliyot va o`quv faoliyatidagi ahamiyatini ta`kidlaydi.</p> <p>Mustaqil ish uchun vazifa beradi.</p>	<p>Tinglaydilar, aniqlashtiradilar.</p> <p>Mustaqil ish uchun vazifani yozib oladilar.</p>

Amaliy mashg'ulot mavzusi: "Qiyosiy tahlil"

Reja:

1. Qiyosiy tahlilning mohiyati va asosiy maqsadi
2. Qiyosiy tahlil turlari

Tayanch iboralari: Qiyosiy tahlil, moliyaviy ko'rsatkichlarni solishtirish, gorizontal va vertikal tahlil, dinamika va o'sish sur'atlari, rentabellik ko'rsatkichlari, likvidlik va to'lov qobiliyati, moliyaviy barqarorlik

Qiyosiy tahlilning mohiyati va asosiy maqsadi, qiyoslash obyektlari haqida yangi bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishdir. Bu orqali biz quyidagi natijalarga erishamiz: Birinchidan, qiyosiy tahlil jarayonida, har bir taqqoslanadigan obyekt haqida yangi ma'lumot olamiz. Ikkinchidan, qiyoslanayotgan hodisalarning o'zaro ta'siri haqida yangi tushunchalarga ega bo'lamiz. Uchinchidan, agar obyektlarni taqqoslash jarayoni yetarli darajada to'liq va aniq bo'lsa, unda ularning o'tmishi, buguni va kelajagi haqida umumiy tasavvur hosil qilamiz. Shu bilan birga qiyoslash metodikasi nazariyasini boyitamiz. Qiyoslash jarayonida biz ko'plab metod va usullardan foydalanamiz. Bu esa bizning nafaqat obyekt haqidagi bilimlarimizni, balki hayotdagi ayrim muammolarni hal qilishdagi emperik bilimlarimizni, ya'ni tajribamizni ham oshiradi va amaliy imkoniyatimizni kengaytiradi.

Qiyosiy tahlildan maqsad – qiyoslanuvchi obyektlarning o'xshash va farqli jihatlari aniqlash, ular orasidagi umumiy qonuniyatlarni yuzaga chiqarishdan iborat.

Tahlilning asosiy (umumiy) usullari sifatida quyidagilarni tarkiblash lozim. Taqqoslash usuli. Taqqoslash – tahlilda eng ko'p qo'llaniladigan usul hisoblanadi. Uning gorizontal, vertikal, trendli usullari tarkiblanadi. Amalda taqqoslashning muhim shartlariga amal etish talab etiladi. Ular qatoriga o'lchov birligi (hajm, qiymat, miqdor ko'rsatkichlar), davriy oraliqlari, faoliyat shakli, ishlab chiqarish sharoitlari, ishbilarmonlik muhiti bir xilligi, hisob-kitoblarning metodik jihatdan yagonaligini kiritish mumkin. Taqqoslashning mazmuni – qiyoslashdan iborat. Taqqoslash asosida o'rganilayotgan obyektidagi o'zgarishlar, ularning rivojlanish tendensiyalari va qonuniyatlari o'rganiladi. Qiyosiy tahlil quyidagi turlarga ajratib o'rganiladi: gorizontal, vertikal, trend va shuningdek bir o'lchamli va ko'p o'lchamli tahlillar. Gorizontal tahlil tayanch (bazaviy) ko'rsatkichi (reja, o'tgan yil, o'rtacha, ilg'or xo'jaliklar ko'rsatkichi)dan haqiqiy ko'rsatkichning mutlaq va nisbiy o'zgarishlarini aniqlash va baholash uchun qo'llaniladi. Vertikal tahlil iqtisodiy hodisalar tuzilmasini o'rganish maqsadida uning alohida qismlarini jamidagi salmog'ini hisoblash yo'li bilan amalga oshiriladi. Trend tahlili

ko'rsatkichlarni bir qator yillar mobaynida nisbiy miqdorlarda o'sish va qo'shimcha o'sish sur'atlarini o'rganishda qo'llanadi. Bir o'lchamli tahlilda taqqoslash bir obyektning bitta yoki bir nechta ko'rsatkichlarini, yoki bir nechta obyektning bitta ko'rsatkichini taqqoslash yo'li bilan amalga oshiriladi. Ko'p o'lchamli tahlilda bir nechta korxonalarni katta spektrdagi ko'rsatkichlari taqqoslab o'rganiladi. Bu tahlil korxonalar va ularning bo'linmalari faoliyatini kompleks baholashda keng qo'llaniladi. Taqqoslashda real voqelikning, haqiqatdagi ko'rsatkichlarning reja, o'tgan yillar, bazis yili, o'rtacha tarmoq, ilg'or, qoloq, xorij ko'rsatkichlariga nisbatan o'zgarishlariga, ularning dinamikasiga, mutlaq va nisbiy ifodalarda baho beriladi.

Taqqoslama (qiyosiy) tahlili. Moliyaviy tahlilda qiyosiy tahlil turi – ko'rsatkichlarni mutlaq va nisbiy ifodalarda keng doirada taqqoslash usuli sifatida ishlatiladi.

Metodik jihatdan ushbu usul gorizontal va vertikal, trend tahlili usullariga o'xshaydi. Lekin ulardan tubdan farq etadi. Taqqoslash tahlilida esa ushbu tahlil objekti, yoki tahlil etilayotgan korxonalar bo'yicha ma'lumotlar boshqa subyektlar ma'lumotlari bilan, normativ me'yorlar bilan, reja ko'rsatkichlari bilan, tarmoq bo'yicha o'rtacha, ilg'or ko'rsatkichlar bilan ham taqqoslanishi nazarda tutiladi. Taqqoslash tahlilida moliyaviy hisobot elementlari va moddalarining o'zgarishiga, moliyaviy holatni xarakterlovchi ko'rsatkichlarga baho beriladi. Mutlaq ifodalar, nisbiy ifodalar bilan to'ldiriladi.

Moliyaviy tahlilda taqqoslash tahlilining shartlari:

- taqqoslashni interval oraliqlar bir xilda olinishi;
- taqqoslash ko'rsatkichlari bir xil o'lchovli bo'lishi;
- taqqoslashni bazaviy ko'rsatkichi, normativ ko'rsatkichlarini belgilab olishda rasmiy jihatlarga amal etilishi;
- taqqoslashning obyektlari bo'yicha moliyaviy hisobotlarni tuzish qoidalari bir xilda bo'lishi;
- moliyaviy hisobot elementlari, moddalarini tarkiblash va ko'rsatkichlarini aniqlash metodikasi bir xilda bo'lishi lozim.

Taqqoslash usuli iqtisodiy tahlilning an'anaviy usullari qatorida eng ko'p qo'llaniladigan usul hisoblanib undan tahlilning boshqa usullari bilan birgalikda korxonalar moliyaviy holatini to'la ochib berishda foydalaniladi. Bu jihati bilan qiyosiy tahlil ham moliyaviy tahlilning ham boshqaruv tahlilining usuli sifatida qaraladi.

1-ilova.

Amaliy mashg'ulotda ishlash tartibi va reglamenti

1. Guruhda ishlash va prezentatsiyani tayyorlash – 20 min.
2. Ish natijalarini prezentatsiya orqali namoyish qilish – 5 min.
3. Jamoa bo`lib ishlash va guruhlarni baholash – 5 min.

2-ilova.

Guruh bilan ishlash qoidalari

Har biri o`z sheriklarining fikrlarini xurmat qilishlari lozim;

Har biri berilgan topshiriqlar bo`yicha faol, hamkorlikda va mas`uliyat bilan ishlashlari lozim;

Har biri o`zlariga yordam kerak bo`lganda so`rashlari mumkin; Har biri yordam so`raganlarga ko`mak berishlari lozim;

Har biri guruhni baholash jarayonida ishtirok etishlari lozim;

Har biri: “Biz bir kemadamiz, birga cho`kamiz, yoki birga qutilamiz” atamasini

3-ilova.

Baholash mezonlari va ko`rsatkichlari (ball)

Guruh	Yondoshuvning (to`liqligi, to`g`riligi)	Grafikda to`g`ri tasvirlash	Guruh faolligi	Muammo nifaol yechilishi	Ballar yig`indisi
	(1,0)	(0,6)	(0,4)	(1,0)	(3,0)
1					
2					
3					

4-ilova.

1-topshiriq: Korxonalararo qiyosiy tahlil

Vaziyat (case):

“Samarqand Textile” va “Buxoro Fabric” korxonalarining quyidagi moliyaviy ko`rsatkichlari berilgan:

Ko`rsatkichlar	Samarqand Textile	Buxoro Fabric
Sof foyda (mln so`m)	850	920
Aktivlar (mln so`m)	5000	6100
O`z kapitali (mln so`m)	3000	3500
Sotuv hajmi (mln so`m)	7200	7800

Topshiriq:

- Rentabellik (ROA, ROE) ko`rsatkichlarini hisoblang
- Har ikki korxonani qiyosiy tahlil qiling
- Qaysi korxonada samaraliroq ekanini aniqlang

- Xulosa va tavsiyalar bering

2-topshiriq: Vaqt bo'yicha (dinamik) qiyosiy tahlil

Vaziyat (case):

“Navoiy Agro” korxonasining 2023–2025-yillardagi moliyaviy ko'rsatkichlari:

Yil	Sof foyda (mln so'm)	Sotuv (mln so'm)
2023	600	5000
2024	750	6400
2025	900	8000

Topshiriq:

- Har yil uchun o'sish sur'atlarini aniqlang
- Gorizontal tahlil asosida o'zgarishlarni baholang
- Rentabellik dinamikasini tahlil qiling
- Korxonaning rivojlanish tendensiyasi bo'yicha xulosa chiqaring

3-Topshiriq: Klaster tuzish

Vazifa:

“Qiyosiy tahlil (moliyaviy tahlil)” mavzusi asosida klaster (tarmoqli sxema) tuzing.

Ko'rsatma:

Markazga “Qiyosiy tahlil” tushunchasini yozing

Atrofida quyidagi yo'nalishlar bo'yicha tarmoqlar hosil qiling

Talab:

- Kamida 15 ta tushuncha yozilsin
- Tushunchalar o'zaro mantiqiy bog'langan bo'lsin
- Klaster chizma yoki diagramma ko'rinishida ifodalansin

4-topshiriq: Muammoli vaziyat (korxonalar taqqoslanishi)

Muammo:

Ikki korxonada moliyaviy natijalari deyarli bir xil, lekin ulardan biri bozorda barqarorroq faoliyat yuritmoqda. Nima sababdan?

Vaziyat:

“A” va “B” korxonalarining sof foydasi teng, ammo:

- “A” korxonada aktivlari kamroq
- “B” korxonada qarzlari ko'proq

Topshiriq:

- Qaysi korxonada moliyaviy jihatdan ustun ekanini aniqlang
- Qaysi ko'rsatkichlar asosida baholash kerakligini belgilang .
- Muammoning sababini tushuntiring
- O'z yechimingizni asoslab bering

5-topshiriq: Muammoli vaziyat (dinamik tahlil)

Muammo:

Korxonaning daromadi yil sayin oshmoqda, lekin foyda darajasi kamaymoqda. Bu qanday holat?

Vaziyat:

Korxonada:

- Sotuv hajmi oshgan
- Xarajatlar tezroq o‘sgan
- Natijada rentabellik pasaygan

Topshiriq:

- Muammoning asosiy sabablarini aniqlang
- Qiyosiy (gorizontal) tahlil orqali vaziyatni tushuntiring
- Qanday choralar ko‘rish kerakligini taklif qiling
- O‘z xulosangizni yozing

Testlar

1. Qiyosiy tahlilning asosiy maqsadi nima?

- A) Faqat foydani hisoblash
- B) Moliyaviy hisobot tuzish
- C) Obyektlarni solishtirib, xulosa chiqarish
- D) Xarajatlarni oshirish

2. Gorizontal tahlil nimani o‘rganadi?

- A) Ko‘rsatkichlarning tarkibini
- B) Ko‘rsatkichlarning vaqt bo‘yicha o‘zgarishini
- C) Faqat foydani
- D) Faqat xarajatlarni

3. ROA ko‘rsatkichi nimani bildiradi?

- A) Sotuv hajmini
- B) Aktivlar samaradorligini
- C) Qarzdorlik darajasini
- D) Xarajatlar miqdorini

4. Qiyosiy tahlilda qaysi usul korxonalarni o‘zaro solishtirishga xizmat qiladi?

- A) Inventarizatsiya
- B) Benchmarking
- C) Amortizatsiya
- D) Diskontlash

5. Rentabellik pasayishi nimani anglatadi?

- A) Foyda oshganini
- B) Xarajatlar kamayganini
- C) Samaradorlik pasayganini
- D) Aktivlar ko‘payganini